Ключевые слова: будущий педагог, профессиональное мастерство, профессиональная компетентность, инновационные цифровые технологии, цифровая образовательная среда, педагогические технологии, организация образовательного процесса, интерактивные платформы, алгоритмическое мышление, информационно-коммуникационные технологии, анализ данных, цифровая грамотность, эффективность образования, компетентностный подход.

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilar egallagan nazariyalarning qaysi biri amaliyotda qo'l kelishi va qaysi biri nazariy jihatdan ustun ekanligini, shuningdek, o'quvchilarni boshqarish vazifalarini hamda ular yashab, o'qib, ta'lim olayotgan xususiy maktab yoki an'anaviy maktab ta'lim tizimidagi farqli jihatlarni har tomonlama anglab olish lozim. Ta'lim jarayonining tizimli tashkil etilishi, aniq tuzilma va pedagogning yetarli kasbiy malakaga ega bo'lishi o'quvchilarning iste'dodli, tarbiyali va chuqur bilimli shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Obyektivlik va aniqlik, tanqidiylik, ya'ni bo'lajak pedagogning o'z samaradorlik darajasini namoyon etuvchi dars



uslubida sintetik jamlanmalar, ya'ni ilmiy tafakkur asosida tahlil qilish yoki sun'iy muammolar, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, aniqlik, obyektivlik va tanqidiylikka xos yondashuvlar qo'llanilishi lozim.

Ushbu jarayonda o'qituvchining ifodalayotgan mavzuga nisbatan qiziquvchanlik funksiyasini aniqlik asosida amalga oshirishi, ya'ni o'qituvchining metodlardan raqamli texnologiyalar bilan birgalikda foydalanishi, smart doskalar, matematik algoritmlar yoki Wi-Fi zonalari, IT platformalaridagi turli formatlar va qurilmalardan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va boshlang'ich muammolarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga umumiy va mavhum muammolarni emas, balki ularning yosh xususiyatlariga mos, tizimli va xulosaviy fikrlashni rivojlantiruvchi masalalarni taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Bunda refleksiya va xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish o'quvchilarning pedagogik jihatdan kompetentligini oshirishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik kompetentlik talaba-yoshlarning pedagogik faoliyati, qobiliyati va vazifalarini bajarish jarayonida bevosita namoyon bo'ladi. Vazifalarni bajarish funksiyasi ularning psixologik jihatdan tahlil qilinishi bilan belgilanadi. Maxsus o'qitish usullari – o'qitish uchun moslashtirilgan, matematikaning o'zida qo'llaniladigan asosiy bilish usullari, matematikaga xos bo'lgan voqelikni o'rganish usullari (matematik modellarni qurish, bunday modellarni qurishda qo'llaniladigan abstraksiya usullari, aksiomatik usul). Aqlli qurilmalarni yaratish va joriy etish maktablarda ham qo'llanilmoqda. Masalan, aqlli qo'ng'iroq va xona haroratini o'lchovchi turli datchiklar yaratilgan. Bundan tashqari, yer qimirlashini aniqlash qurilmasi, fotoelektrik konverter qurilmasi, termoelektrik konverter qurilmasidan foydalangan holda zamonaviy ta'lim xonalarini yaratishimiz mumkin. Ma'lumotni saqlashda esa bulutli texnologiyalarni qo'llash juda foydali bo'lib qoldi.

O'quvchining darsdagi faolligi va diqqatini boshqa vaziyatlarga chalg'itmaslik foydali bo'ladi hamda ta'lim sifati oshib boradi. Ushbu jarayonga biz quyidagicha takliflarni bermoqdamiz:

- ta'lim jarayonida o'quvchilarda tasavvur imkoniyati yetarli bo'lmaganligi uchun dars jarayoniga modellash-tirish texnologiyalarini olib kirish;
- darslarda texnik qurilmalardan amaliy foydalanish imkoni bo'lmagan hollarda ishlash jarayonini virtual holda yaratish va natijani ko'rsatish; Ø modellash-tirilgan obyektlar asosida tahlilni olib borish;
- kimyoviy moddalar bilan ishlash jarayonida ularni ko'rsatishda; Ø geometriya darslarida esa shakllar va stereometriya bo'limini o'rganish uchun yaratilgan modellardan unumli foydalanish mumkin.

Matematikani o'qitish kerakli darajada bo'lishi mumkin emas, agar o'qituvchi ishida takroriy-umumlashtiruvchi darslar tizimi mavjud bo'lmasa, o'quvchilarning bilimlari yetarli darajada to'liq va mustahkam bo'lmaydi. Bu bilish jarayonining psixologik xususiyatlari va xotira xususiyatlari bilan bog'liq. Muayyan tizimdagi oldingi bilimlar tizimiga yangi bilimlarning doimiy kiritilishigina fanni yetarli darajada yuqori sifatli o'zlashtirishni ta'minlaydi.^[6] Bilim, tarbiya, ko'nikma, malaka – quyidagi terminlar o'quvchi-yoshlarning pedagogik jihatdan bilim shakllarini oshirishi va ularning o'zaro amaliy jihatdan qo'llanishi katta samaradorlikni yuzaga keltiradi. Bo'lajak pedagogning shaxsiy kompetentligini rivojlantirishi, ya'ni o'z ustida ishlashi, bilim darajasini kengaytirishi va kreativ jihatdan yondashuv xususiyatiga ko'ra o'zining samaradorlik va psixologik-amaliy jihatdan qo'llanuvchi bilim shakllaridan ustunlikda ketma-ketlik asosida foydalanishi lozim. Turli raqamli texnologiyalar va uslublar natijasida o'quvchilarimizning bilim shakli va ularning nutqiy xususiyatlarini belgilaymiz. Metodik jihatdan o'quvchilarimizga "Uch minut", "Evrika", "Tezkor koptokcha", "Hisoblang", "Bum" va boshqa metodlarni qo'llash samaradorlikni yuzaga keltiradi. O'quvchilarning ijtimoiy tarmoqlar orqali topshiriqlarni bajarishi hamda "Bir minut" metodi asosida tashkil etiladigan qisqa dam olish mashg'ulotlari boshqa metodlar bilan uyg'unlashtirilganda, ta'lim jarayonida integrativ yondashuvni ta'minlaydi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlar va axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodologik jihatdan integratsiyasini yuzaga keltiradi. Bo'lajak pedagogning kompetentligi mana shunday jihatlar, vaziyat va muhitga ko'ra rivojlanib, yuksalib boradi.

Ta'lim ishini tashkil etishning bosh omili ham o'quvchi-yoshlarning teran fikr va dunyoqarash asosida bilim olishlariga imkon yaratish bilan baholanadi. Haqiqatan ham, bugun ta'lim tizimining izchillik asosida rivojlanib borishi o'ziga xos tarzda tezkorlik va faollikni ham talab etishi bilan xarakterlanadi. Mazkur jarayonda hisoblash texnologiyalari, kreativ yondashuv hamda bilimlarning kontekstual qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish yuqorida bayon etilgan nazariy va amaliy qarashlar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu masalalar, ayniqsa, matematika o'qitish metodikasida o'zining yaqqol ifodasini topadi. Bo'lajak o'qituvchining pedagogik kompetentligi uning yurish-turishi va pedagogika sohasiga bo'lgan muhabbati, qolaversa, o'quvchilarga mavzuni tushuntirib berish shakli va yetkazib berish darajasi bilan baholanadi. Bunday faoliyat mashhur ijtimoiy shaxslarning guruh tomonidan milliy va madaniy-

lashgan qatlamda yashovchi hamda tahsil oluvchi o'quvchi-yoshlarga berayotgan bilimlari, nazariyasi va amaliyoti bilan o'rnak bo'lishi lozim. Bunda ta'lim tizimi, ya'ni "yonuvchi sistema" so'zidan olingan tizim asosida amalga oshiriladigan dars yaxlitlik, butunlik va funksionallik asosida tashkil etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim ishini tashkil etishda bilim nazariyasi va qarashlarini bugungi kun, davr nuqtai nazaridan baholash kerak. Davr nuqtai nazaridan baholaganda, zamonaviylik va integratsiyalashuv jarayonining o'ziga xosligini unutmagan holda, turli tamoyillarni, psixologik-fiziologik holatlarni hisobga olish va o'quvchilar bilan ishlashda yaxshi yondashuvni ta'minlash lozim. Pedagogik jarayon asosida amalga oshirilayotgan uslub va metodlarning samarasi darsda zamonaviy pedagogik texnikalar, ijtimoiy tarmoqlar va kasb-hunarga yo'naltirish metodi-kasidan foydalanish orqali namoyon bo'ladi. Bugungi kunda jamiyatimizda ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlar pedagoglardan turli xil tanqidiy fikrlash nazariyalari va qarashlarini, o'zini tutish, hayotga bo'lgan munosabat, dunyoqarash hamda ta'limiy o'zgarishlarni o'rganadi va ularga taqlid qiladi.

Jamiyatimizda ta'lim oluvchi o'quvchi-yoshlar orasida kar-soqov talaba-yoshlar yoki defektologiya sohasidagi muammolari mavjud o'quvchilar ham bor. Ushbu holatga metodik va uslubiy jihatdan uzviy bog'liqlik, bir-birini to'ldiruvchanlik hamda bosqichma-bosqichlik asosida yondashish, ta'lim oluvchilarning texnologik funksiyalarini rivojlantirishdan boshlash lozim. Pedagogika yoshlar pedagogikasi va kattalar pedagogikasiga bo'linadi. Biz metodik jihatdan o'quvchilarimizda kompetentlikni rivojlantirish uchun o'qituvchining o'z ustida ishlashi uchun jarayon va sharoit yaratib berish hamda ushbu jarayon bilan birga o'quvchi-yoshlarga nazariyalar va qarashlarni o'rgatishga moslashishimiz lozim. Bunga sabab – bo'lajak pedagog ta'lim olish jarayonida ustozlari va rahbarlaridan bilimlarni olgan. Ushbu holatda egallangan bilimlarni amaliyotda va tajribada qo'llash lozim.

An'anaviy uslubda qo'llangan tajribalar va noan'anaviy uslubda qo'llangan tajribalarni turli texnik vositalar yordamida bajariladigan vazifalar bilan uyg'unlashtirish lozim. Ushbu holat etika jihatidan nafosat tarbiyasini unutmagan holda, o'qituvchining obyekt va subyekt o'rtasidagi munosabatlari, uzviylik chizig'ini buzmaganda, ijtimoiy fanlarning o'zaro amaliyotda qo'llanishi va malakaviy tendensiyalardan saqlanishiga yordam beradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, o'quvchi-yoshlarning pedagogik va metodik bilimlarini oshirish jarayonida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ularning turli pedagogik vaziyat va muhitlarda faoliyat olib borishi, o'quvchi-yoshlar bilan samarali ishlashi, ularga ijobiy pedagogik ta'sir ko'rsatishi hamda to'g'ri yo'naltirishi uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda bizga psixologik metodlar ham yordam beradi. O'quvchi-yoshlarimizning dunyoqarashlarini va qarashlarini amalga oshirilayotgan vazifalar orqali anglash mumkin.

Buni biz psixologik metodlar yordamida amalga oshiramiz. Ushbu jarayonda "O'ylab ko'ring", "Quvnoq test", "Tezkor mental", "Davomini toping" yoki "Toping" kabi metodlar, psixologik so'rovnomalar va turli omillar yuzasidan tashkil etilgan mashqlardan foydalanamiz. Pedagogikaning fiziologiya va huquqshunoslik, siyosatshunoslik, ma'naviyat asoslari, turli umumiy tarbiyaviy fanlar, tarix, falsafa, etnografiya, etika, psixologiya, sotsiologiya, geometriya, geografiya, mental arifmetika, mantiq kabi fanlar bilan aloqadorligini unutmagan holda, o'qituvchi o'z nutqini va darsda foydalanayotgan metodlarni, metodik birlashmalarni samarali qo'llay olishi va integratsiyaga amal qilishi lozim. Ushbu fikrlar matematika o'qitish metodikasida ham namoyondir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z ustida ishlovchi shaxs sifatida turli xil nazariyalarni chuqur o'rganishi lozim. Ushbu holat darsning amalga oshirilishi va pedagogik kuzatish asosida o'rganiladi.

Adabiyotlarni o'rganish metodi murakkablik va tizimlilik asosida olib boriladi, o'quvchilar esa sun'iy shakllantirilgan jarayon asosida suhbat va kuzatish metodlari orqali o'z faoliyatini amalga oshiruvchi strategik harakatlarni belgilab oladi. Ushbu metodik harakatlar yakka tartibda yoki guruh bilan ishlash, zamonaviylik va an'anaviylik asosidagi ta'lim tizimlari orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh bilan ishlashda zamonaviy va raqamlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara berishi ma'lum. "Matematika darslarida o'quv dasturi o'quvchilar tomonidan yangi materiallarni o'rganishda, dastlabki aniqlash va takroriy o'qitish bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqori sinflar uchun repetitorlik bosqichida o'qituvchi odatda muvaffaqiyatsiz o'quvchilar bilan yoki biron bir sababga ko'ra ko'rib chiqilayotgan materialdagi bo'shliqlarga ega bo'lganlar bilan ishlashda o'quv dasturlarini qo'llaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Matematika



o'qitishda kompyuterlarning qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Model-lashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirish qiyin bo'lgan materiallarni tushunarli bo'lishini ta'minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar. Ko'p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o'z kasbi bilan bir vaqtda ma'lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo'lgan mate-matik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin".^[6]

Samaradorlik natijasida jarayonning tarbiyaviy asoslarini shakllantirish, bu borada o'quvchilarning erkin fikrlash qobiliyati va kreativligini rivojlantirish uchun biz ularga smart doskalar, Wi-Fi zonalari, ijtimoiy platfor-malar va noutbuklar asosida dars tizimini tashkil qilishimiz lozim. Bu esa o'quvchilarda o'zaro yaratuvchanlik psixologiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Biz tashkil etgan dars yuzasidan mustahkamlash jarayonida psi-xologik bilimlardan foydalanamiz. Bu biz uchun adabiyot, matematika, geometriya, kimyo kabi fanlar bo'yicha darslar bo'lishi mumkin. O'rganish va kuzatish jarayonida bo'lajak o'qituvchi o'zining pedagogik kompeten-tligini o'rganish va kuzatish natijalari asosida rivojlantiradi. Pedagogik kompetentlik va uning turlari asosida bo'lajak o'qituvchi yakka tartibda kuzatuvchanlik psixologiyasi, o'quvchilarning xulq-atvori, muomala madani-yati, gapirish funksiyasi, nutq tezligi, sanash qobiliyati, obyekt va subyekt munosabati, xarakter xususiyatlari va hokazolar yuzasidan bilimga ega bo'lishi lozim. Matematikaga va kibernetikaga oid bilimlarni, shuningdek, infor-matsion bilimlar va axborotlarni qamrab olish, o'quvchi-yoshlar bilan ishlashda raqamli texnologiyalar va ularga oid pedagogik metodlardan foydalanishning o'rni katta ekanligini ko'rsatadi. Suhbat metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqot hamda pedagogik munosabatlar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu metod orqali o'qituvchi bilimlarning o'quvchilar tomonidan ongli ravishda qabul qilinishiga yo'nal-tiradi. Shu sababli pedagog o'z mohiyatiga ko'ra "yetaklovchi" hisoblanib, u o'quvchilarni samarali va puxta bilim egallash sari yo'naltirishi lozim. Pedagogik jarayonning amalga oshirilishida o'quvchi va o'qituvchi muno-sabati, tarbiyalanuvchi va tarbiyalovchi munosabati uzviy aloqadordir. Bu kabi munosabat shakllari metod, texnika va ta'limiy texnologiyalar bilan axborot shaklini qabul qilish jarayoni orqali bog'lanadi. O'qituvchilar berayotgan bilimlarni o'quvchilarning qabul qilishi, ularni foydali deb bilishi, o'rganishi, izlanuvchanlik faoliya-tini amalga oshirishi va hayotida tatbiq etib qo'llashi uchun o'quvchilarga yangicha yondashuv hamda yangi-likka asoslangan dars tizimlarini amalga oshirishimiz lozim. Dars tizimlari funksional tarzda strategik bilimlar va bosqichma-bosqichlik asosida tashkil etilishi, ularga asos bo'lishi lozim.

Milliylik madaniyati va milliy koloritni saqlagan metodik asoslarda shaxsning mukammalligi va kreativligini shakllantiruvchi texnika va texnologiyalardan foydalaniladi. Ko'p holatlarda ijtimoiy tarmoqlar va telefon yordamida o'quvchilarning interfaoligini oshirishga xizmat qiluvchi matematik va psixologik so'rovnomalar hamda izlanuvchanlik tendensiyasi asosidagi bilim shakllarining namoyon bo'lishiga yordam beradi. Dars mashg'ulotlarini namunalari tartibda olib borish va zamonaviylashgan, yangilik ruhida bilimlarni psixologik va ijtimoiy tarzda berish materiallari va tarqatma materiallari bilan bog'liqdir. Pedagogik kompetentlikni oshirishning yana bir usuli shundan iboratki, o'qituvchi darsda tarqatma materiallardan foydalana olishi kerak. O'z o'rinda shuni ma'lum qilish lozimki, biz raqamli axborot texnologiyalari va boshqa texnologiyalardan foydalanayotgani-mizda kompyuter, telefon yoki planshetlar, smart doskalar, IT platformalarida ishlash tizimi ham turli ma'lumot-larning texnologiyalar bilan aloqadorlik asosida yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Pedagog o'zining matematik, psixologik va metodik salohiyati, bilim va tajribasini amalga oshirish uchun kuchli bilim hamda nazariyaga ega bo'lishi lozim. Bu esa matematik bilim berish shaklining kreativlik, ijodiylik va algoritmizatsiya tartibida amalga oshirilishida katta yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchi o'zining kompetentlik qobiliyatini amalga oshirishda funksional vazifalarini bajarishi lozim. Bo'lajak o'qituvchining fiziologik xususiyat-lari uning texnika va metodologiyadan foydalanish vazifalarini yuzaga keltiradi. Ushbu holat metodologiyaning oddiy va kundalik jarayon sifatidagi bilish hamda ilmiy baholash yo'llarining turli vositalari va ijtimoiy tadqiqot qonuniyatlarini taqqoslash nazariyasi, funksional nazariy ma'lumotlar asosida boyib borishi bilan bahola-nadi. Pedagogika fani pedagoglarni turli metodlar asosida baholash va ularni turli boshqaruv usullari asosida qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Pedagogika matematik amallar bilan birga metodologik va ijtimoiy nazari-yalar asosida, asosan, universitet, institut va tadqiqotlarda turli vazifalarni bajaruvchi kishilarning bilim shakl-larini ifodalashda namoyon bo'ladi. Ushbu holat bo'lajak pedagoglarni amaliyotida nazariy bilim berish shakllari, tarbiyaning yaxlitlik va funksional tarzda ifodalanishi hamda umuminsoniy tajribalarga tayanishida namoyon bo'lishi ham ahamiyatlidir.

Pedagogik va matematik jarayonning o'zaro aloqaga kirishuvi o'zlashtirish tahlili va bilim berish shak-lining muqobiligini keltirib chiqaradi. Aksariyat holatlarda dars o'tishning turli, oson yo'llarini metodika va usul-



larga o'rganib qolgan holda amalga oshiramiz. Tarbiya keng ma'nodagi inson ongini qamrab oluvchi va unga to'g'ri, samarali ta'sir ko'rsatuvchi bilim shakllarining umumiy yig'indisi ekanini unutmashlik lozim. Matematik pedagogika kompyuterlashtirish yoki interfaol usullar, tarbiyaning turli metodlari asosida turli yo'naltiruvchilik vazifalarini bajaradi. Bu borada amaliy matematik texnologiyalar bilan ishlashning o'rni va ahamiyati kattadir. Kompetentlikning rivojlantirilishi aksariyat hollarda o'quvchilarga nisbatan o'qituvchilar uchun qulay va mosdir. O'qituvchi bir necha o'quvchilarga dars berishi, ularga bilim berishi va bilimlarini nazorat qilishi mumkin. Egallangan bilimlarning o'qituvchi tomonidan o'rtoqlashilishi turli xil holatlar va vaziyatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi o'z bilim salohiyati va tarbiya haqidagi fikrlarga tayanishi lozim. Pedagogik shaxsni tarbiyalash hamda uning obyekt va subyekt o'rtasidagi munosabati o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot shaklida namoyon bo'ladi. O'quvchi shaxsiga berilayotgan bilimning dolzarbligi, ma'lumotlarga asoslanganligi, malakaviy jihatdan ilmiy-tadqiqot asoslariga muvofiq kelishi va yoshlarning qiziqish darajasi bilan bog'liq.

XULOSA

O'quvchi-yoshlarning berilayotgan bilimga nisbatan ijtimoiy munosabatining buzilganligi sababli ahamiyat-sizlik darajasi yuzaga keladigan bo'lsa, o'qituvchi yangicha metodlar, texnika va texnologiyalardan foydalanishi lozim. Mazkur jarayonda pedagogik faoliyatni boshqarish, maxsus o'quv materiallari bilan samarali ishlash hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar va ularni qo'llash metodikasi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Aksariyat holatlarning umumiyliги falsafiy jihatdan nazariyalar bilan belgilanadi. Bunda ular reproduktiv bilim shakllari va asosiy tadqiqot ishlarining dars sifatiga qaratilishi bilan belgilanadi. O'quvchi-yoshlarning malakalarini oshirish va amaliy jihatdan egallagan bilimlarini qo'llashda tajribaning umumiyliги maktab tizimlarida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda bo'lajak pedagoglarimiz, ya'ni talabalarimiz, 4+2 tizimidagi ta'lim shaklida bilim olib, amaliy va nazariy bilimlarning umimlashgan qiymatini namoyon etadilar. O'quvchilar turli xil loyihalar va ilmiy-pedagogik qarashlarini maktab dasturida tafakkuran zamonaviylik bo'yog'ida namoyon qiladilar. Bu esa turli ta'lim shakllari, metodlar va tarbiyaning funksional vazifalarining innovatsion faoliyat asosida yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. Yangilik bo'yog'i bilan asoslangan ta'lim shaklida o'qituvchining yangilikka asoslangan metoddan foydalanishi katta ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchining talaba-yoshlarga turli xildagi zamonaviy xabarlar va yosh xususiyatlariga muvofiq keluvchi axborotlar bilan ishlashi ham samaradorlikni yuzaga keltiradi. O'quvchilar va ularning bilimlarini reyting asosida baholash, bilimlarini chuqurlashtirish yuzasidan shaxsiy rejalar ishlab chiqish ham katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova Mohidil Nomozovna. "Matematika fanini o'qitishning metodikasi". "Science and Education" Scientific Journal, 2022.
2. Xudonazarov Egambergan Madraximovich. "Matematika o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma). Urgench, 2019.
3. Safarova N. N. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining ijodkorlik faoliyati // World Social Science Scientific-Practical Journal, № 6 (12), 2019. – P. 80–81. Impact factor: 6,745.
4. Safarova, N. N. O'qituvchining kasbiy mahorati va kompetentligi // Sustainable Development: Problems, Analysis, Prospects. International Scientific and Practical Conference. – Poland, 2023. – P. 10–15.
5. Safarova, N. N. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // International Conference on Multidisciplinary Science. – India, 2023. – P. 56–61.
6. Safarova N. N. Using the Competence Approach in Mathematics // World Social Science Scientific-Practical Journal, № 1 (7), 2019. – P. 126–127. Impact factor: 6,745.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.